Botanika bog‘lari o‘rtasida hamkorlikni o‘rnatishga bag`ishlangan birinchi seminar bo‘lib o‘tdi

Joriy yilning 7-8-noyabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika institutda AQSH va O‘rta Osiyo botanika bog‘lari o‘rtasida hamkorlikni o‘rnatishga bag`ishlangan birinchi seminar bo‘lib o‘tdi.

Seminarda AQSHning Chikago Botanika bog‘idan (Chicago Botanical Garden) Tankersley Boyce, Denver Botanika bog‘idan (Denver Botanical Garden) Sarada Krishnan, Longvud Botanika Bog‘idan (Longwood Botanical Gardens) Peter Zale, O‘rta Osiyo davlatlaridan: Kozog‘iston Respublikasi Ta’lim va Fan vazirligi Botanika va fitointroduksiya instituti direktori G.T.Sitpayeva, Botanika va fitointraduksiya institutining Ostona filiali direktori S.Muxtabayeva, Qirg‘iziston Milliy akademiyasi Biologiya va tuproqshunoslik instituti professori G.A.Lazkov, Tojikiston Fanlar akademiyasi Pomir Biologiya instituti direktori D. Navruzshoyev, Tojikiston Fanlar akademiyasi Botanika, fiziologiya va o‘simliklar genetikasi institututi professori K.K.Xisoriyevlar ishtirok etishdi.

Seminar davomida turli mamlakatlar botanika bog‘lari o‘rtasida doimiy xamkorlik o‘rnatish hamda istiqbolda anglashuv memorandumi tuzildi.

Seminar kelishuviga ko‘ra, AQSH va O‘rta Osiyodagi botanika bog‘larida tadqiqot olib borayotgan yosh olimlarni doimiy tajriba almashinish va malakasini oshirishga kelishildi.

Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Institute of Botany
National Herbarium of Uzbekistan (TASH)
First Seminar on Collaboration
Between US Botanical Gardens
and Central Asian Botanical
Institutions